

**TIF TN BO'YICHA TOVARLARNI TASNIFLASHNING XALQARO
SAVDODAGI AHAMIYATI****Zaxro Orifjonovna Quvatova***Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti katta o'qituvchisi**Toshkent, O'zbekiston.*zahrokuvatova@gmail.com

ORCID: 0009-0000-1872-6473

O'zbekiston Respublikasining Bojxona tizimi tarkibi mustaqillik yillarida tubdan qayta ko'rib chiqilib, bojxona organlarining vazifalari bugungi kun talablari asosida takomillashtirildi. Bojxona nazoratini tashkil etish va tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini hamda bojxona ko'rigini o'tkazishda tovarlarni ularning kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlashning ilg'or usullari va zamonaviy texnika asboblari qo'llash yo'lga qo'yilmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Ispaniya, Gollandiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa rivojlangan davlatlarning bojxona ishi sohasidagi tajribalari o'rganilib, bojxona ishini jahon andozalari darajasi talablariga yetkazish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda Respublikamiz bojxona tizimi o'z qonunlari, me'yoriy hujjatlariga ega bo'lgan. Uning hamma bo'g'inlari qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi tizimga aylandi. Mamlakatimiz bojxona tizimi xalqaro miqyosda e'tirof etilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida shakllandi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish borasida bojxona tizimida katta ishlar olib borilmoqda. Davlat xazinasini boyitishning asosiy omillaridan biri bo'lib Respublikaga olib kelinayotgan tovar moddiy boyliklardan boj to'lovlarini qonuniy to'g'ri undirishni ta'minlash hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda, ya'ni tovarlarni eksport va import qilish jarayonida har bir tovar tizimli ravishda Uyg'unlashgan tizimga (keyingi o'rinlarda UT) asoslangan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) asosida xalqaro kod raqamlariga muvofiq tasniflanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri bo'lib - bojxona ishining tarkibiy qismi bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlarni sinflash va kodlash bo'yicha TNning amalga kiritilishi hisoblanadi. Tovarlarning narxini aniqlash va boj to'lovlarini to'g'ri hisoblash va undirish tovarlarning to'g'ri TIF TNga ko'ra sinflanganligiga bog'liq bo'ladi. Tovar va transport vositalarining bojxona nazoratini tashkil etish va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish jarayonida davlat bojxona siyosatini ishlab chiqish va tashqi savdo bojxona statistikasini aniq yuritishda tovarlarning to'g'ri sinflanganligi muhim ahamiyat

kasb etadi. Shuning uchun, bojxona ishini yuqori darajada tashkil etishda bojxona xodimlaridan tovarlarni sinflashning nazariy qoidalarini va bu qoidalarni amaliyotga tatbiq etishni mukammal bilish talab etiladi.

Mamlakat tashqi savdo aylanmasining o'sishi uning iqtisodiyoti uchun zaruriy shartdir. Ushbu maqsadga erishishning eng samarali vositasi sifatida tashqi savdo munosabatlari tizimini soddalashtirish va alohida mamlakatlarga imtiyozlar berishni olishimiz mumkin. Yuqoridagi jarayon xalqaro savdoni liberallashtirish deb ataladi, uning ajralmas qismi tarif imtiyozlari bo'lib, ular o'z navbatida xalqaro va milliy darajada aks ettirilgan.

Tovarlarning kelib chiqish mamlakati quyidagi maqsadlarda aniqlanadi:

- bojxona to'lovlarini hisoblashda imtiyoz va preferentsiyalar berish;
- ayrim mamlakatlarda ishlab chiqilgan ba'zi bir tovarlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishga cheklashlar va taqiqlashlar qo'yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona statistikasini yuritish;
- valyuta nazoratini olib borish va boshqalar.

Tovar muayyan bir mamlakatda ishlab chiqarilganligi yoki yetarli darajada qayta ishlanganligi tovarning kelib chiqishiga doir sertifikat bilan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovarlar olib kirilganda tovarning kelib chiqishiga doir sertifikat - boj tarifi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan preferentsiya berilgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga, muayyan mamlakatdan olib kirilishi miqdoriy cheklovlar orqali yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning boshqa choralari orqali boshqarib turiladigan tovarlarga, bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etilgan hujjatlarda tovarlar qayerda ishlab chiqarilganligiga doir ma'lumot bo'lmagan yoki bojxona organida tovarni deklaratsiyasida tovarning ishlab chiqarilgan mamlakatiga doir noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan, deb tahmin qilishga asos bo'lgan hollarda va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda albatta bojxona organiga taqdim etiladi.

Mashinalar, uskunalar, apparatlarda yoki transport vositalarida foydalanish uchun mo'ljallangan buyumlar, ehtiyot qismlar hamda asboblari, basharti ushbu buyumlar, ehtiyot qismlar hamda asboblari kuzatuv hujjati sifatida ilova qilingan texnik pasportda, texnik formulalarda va boshqa texnik hujjatlarda ko'rsatilgan to'plamga hamda miqdorga muvofiq holda o'sha mashinalar, uskunalar, apparatlar yoki transport vositalari bilan bir to'plamda olib kirilsa va sotilsa, mazkur mashinalar, uskunalar, apparatlar yoki transport vositalari ishlab chiqarilgan mamlakatda ishlab chiqarilgan deb hisoblanadi.

Tovarlarni bojxona hududidan olib chiqishda tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat, agar mazkur sertifikat kontrakt (shartnoma, bitim) shartlariga, tovar olib kiriladigan mamlakatning milliy qoidalariga ko'ra zarur bo'lsa yoki ko'rsatilgan sertifikatning mavjudligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek eksport qiluvchining talabiga ko'ra zarur bo'lsa, qonun hujjatlariga muvofiq sertifikat berishga vakolatli bo'lgan organ tomonidan beriladi.

Bir guruh mamlakatlar, mamlakatlarning bojxona ittifoqlari, mintaqa yoki basharti, tovar ishlab chiqarilgan joyni aniqlash maqsadi ajratib ko'rsatishni taqozo etsa, biror mamlakatning muayyan qismi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat deb hisoblanishi mumkin.

Agar tovarni ishlab chiqarishda ikki yoki undan ortiq mamlakat ishtirok etayotgan bo'lsa, tovarning kelib chiqishi uning «yetarli darajada qayta ishlanganligi» mezoniga muvofiq aniqlanadi.

Ushbu mamlakatda tovarning «yetarlicha darajada qayta ishlanganligi» mezoni quyidagilardan iborat:

- tovari qayta ishlash natijasida tovar pozitsiyasining (tovarning tasniflovchi kodining) TIF TN bo'yicha dastlabki to'rtta kod belgisining istalgan bir darajasida o'zgarishi;

- advalor ulush qoidasi - foydalanilgan materiallar qiymatining yoki qo'shilgan qiymatning foizlardagi ulushi yetkazib berilayotgan tovar bahosining qayd etilgan ulushiga yetganda, tovar qiymatining o'zgarishi.

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat yoki undagi ma'lumotlarning, shu jumladan tovar ishlab chiqarilgan mamlakat haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'lsa, bojxona organi qo'shimcha yoki aniqlik kiritadigan ma'lumot berishni so'rab ushbu sertifikatni bergan organlarga yoki sertifikatda tovar ishlab chiqarilgan mamlakat sifatida ko'rsatilgan mamlakatning vakolatli tashkilotlariga murojaat qilishi mumkin.

Lozim darajada rasmiylashtirilgan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat yoki so'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmaguniga qadar tovar muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan deb hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq tovarlari bojxona hududiga olib kirilishi mumkin bo'lmagan mamlakatda ishlab chiqarilganligiga asoslar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona organi tovari bojxona hududiga olib kirishni rad etishi mumkin.

Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikatning taqdim etilmaganligi tovari chiqarib yuborishni rad etish uchun asos bo'lmaydi. Tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat mavjud bo'lmaganda yoki ushbu sertifikatning va (yoki) unda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga shubha tug'ilganda tovarga nisbatan bojxona bojining ikki baravar oshirilgan stavkasi qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Tovarlar bojxona to'lovlari to'lanishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran bir yildan kechiktirmay bojxona organiga lozim darajada rasmiylashtirilgan kelib chiqish to'g'risidagi sertifikat taqdim etilgan

taqdirda tovarlarga eng ko'p qulaylik berish rejimi yoki erkin savdo rejimi qo'llanilishi yoki qayta tiklanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O'RQ-400-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016 yil 22 aprel.
3. Dmitry V. Korf "Commodity Nomenclature and Classification of Goods for Customs Purposes in the Eurasian Economic Union" Associate Professor, Department of Financial, Customs and Tax Law, Law Faculty, National Research University Higher School of Economics, Candidate of Juridical Sciences.;
4. Д.В. Алёшкина и др. – «Классификация товаров в таможенных целях». Учебное пособие. – Москва- 2021 г.
5. Фетодова Г.Ю. – «Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности». Учебник. - Троицкий мост, 2023 г.